

## O'ZBEK TILI GAP QURILMASIDA HOLATNI IFODALOVCHI ELEMENTLARNING SINTAKTIK O'RNI

*M. To'qboyeva<sup>1</sup>, D. Teshbaeva<sup>2</sup>*

### *Annotatsiya:*

Mazkur maqolada o'zbek tili gap qurilmasida holatni ifodalovchi elementlarning sintak tahlili va sintak o'rni haqida tahlillar berilgan.

*Kalit so'zlar:* holat kategoriyasi, gap qurilmasi, stativ elementlar, sintaktik tahlil, sintaktik birliklar.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/hzhkym71>

O'zbek tili gap qurilmasida holatni ifodalovchi elementlarning sintaktik o'rnini aniqlash uchun sintaktik sathdagi semantik maydonda yuz beradigan murakkab jarayonni ochishda foydalanadigan sintaktik birliklar orqali ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili grammatikasida qo'llaniladigan holat kategoriyasini bildiruvchi sintaksemalar shu qoidalar asosida sintaktik vosita sifatida tilimizda ishtirok etishadi. Holat kategoriyasini tashkil qiluvchi birliklar sintaktik sathda o'rganiladi. Xususan, sintaktik birliklar bir necha komponentli bo'ladi: Salima uxlayapti (gap), chiroyli manzara (so'z birikmasi). Komponentlar orasidagi sintaktik aloqa ikki xil: predikativ aloqa va predikativ bo'lmagan aloqa. Predikativ aloqa natijasida gap hosil bo'ladi (birinchi misol), predikativ bo'lmagan aloqa natijasida so'z birikmasi hosil bo'ladi (ikkinchi misol).

Holat kategoriyasini bildiruvchi sintaksemalar o'zbek tilida predikativ aloqa natijasida hosil bo'ladi. Sintaktik element hosil bo'lish jarayonini nutqda so'zlarning bir-biri bilan bog'lanishi har bir tilning so'z qo'shish qoidalari asosida hosil qilamiz; har bir tilda so'zlarning munosabatini ko'rsatadigan, sintaktik konstruksiya hosil qiladigan turli vositalar bor. So'zlarning obyektli munosabatida komponentlar boshqaruv yo'li bilan birikadi (obektli birikma): ot+fel (rejani bajarmoq), ot+sifat (temirdan qattiq). Bunda tobe komponentning hokim komponentga munosabati kelishik affikslari yordami bilan (kelishikli boshqaruv) va ko'makchilar ishtirokida (ko'makchili boshqaruv) ifodalanadi. Bu birikma tobe holatdagi predmet-obyektning harakat, belgi bilan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

So'zlarning relyativ munosabatida (lotincha "relyativ"- munosabat; nisbiy) komponentlar, odatda, bitishuv yo'li bilan birikadi (relyativ birikma): ravish+fel (tez ishlamoq), ravishdosh+fe'l (iljayib gapirmoq) va boshqalar. Bu birikma harakatning belgi bilan bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. O'zbek adabiy tilida shunday sintaktik jihatlar mavjudki uni birgina gap qurilmasidagi hosil bo'ladigan bir bosh bo'lak va ikkinchi darajali bo'lak birikuvida holatni bildiruvchi sintaksemani sinonimik va antonimik usullar orqali komponentlarning vazifalarini ko'rishimiz mumkin:

Arslon poygakda xomush o'tirardi (H. Nazir).

<sup>1</sup> *To'qboyeva Malohat Bahodirovna, Samarqand Davlat Chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi*

<sup>2</sup> *Teshbaeva Dinara Turgunbaevna, старший преподаватель кафедры иностранных языков, филиал КазНУ им. аль-Фараби*

U uyga juda parishon qaytdi (Mirmuxsin).

Yo'ldosh uni xech vakt bunday hushchaqchaq ko'rmagan edi (Shuhrat).

Berilgan konstruktsiyalarida turli leksik – semantik sintaktik birliklar qatori ko'rsatilgan ular bir vaqtning ichida turli vazifalarni ifodalashgan. Bu erda 1). asliylikni, 2). otlilikni, 3). ravishlilikni ko'rsatib kelishayapti. Berilgan misollardan shuni ko'rishimiz mumkinki bu yerda ikki narsa bir vaqtda ko'rsatilayapti birinchisi, ilmiy qarash belgisi bo'lsa ikkinchisi harakat va holat tavsiflanib kelmoqda. Konstruktsiyada semantik belgilar saqlanib qolsada biz uni kengaytirgan holda asliy otlar va ular bilan bir vaqtda ifodalangan yordamchi so'zlarni manosiga etiborimizni qaratamiz. Bunda albatta subyektning holatini frazeologik jihatdan kengaytirgan holda izohlashga harakat qilamiz:

Karimqul choyxonada kayfi chog' o'tirar edi... (Oybek).

Asosiy gaplarning katta qismida harakat berilgan. Harakatni semantik jihatdan beradigan bo'lsak amaliy tomondan faqat ravish formasida izohlanib kelyapti. Semantikaning Harakati yoki holati xuddi fe'lning forma va tuzilishi kabi o'zida alohida ma'no kasb etadi. O'zbek tili grammatikasida holatni bildiruvchi elementlar masofa bilmaydi buning isboti shuki, ular o'timli va o'timsiz fellar manosida ham gap qurilmasida harakat etishadi.

Masalan: Anora dadasi keltirgan narsalarning barini olib, Toshkentga jo'nadi (O' Usmonov).

O'zbek tili grammatikasida holat bildiruvchi sintaksemalar yasaliş strukturasi fe'lga nisbatan olinsa, fe'ldagi harakatga nisbatan baholanishiga ko'ra uni sifat va fe'l o'rtasida turgan so'z sifatdosh sifatida baholashimiz mumkin. Agar holat bildiruvchi sintaksemalar ravishdoshlarda o'zgalashish jarayonida fe'lning lug'aviy ma'nosini o'zgartirmay, unga faqat tobelovchi sintaktik vazifa yuklasa, sifatdoshlar fe'ldagi dinamik belgini barqarorlashtirib, uning lug'aviy ma'nosini ko'proq modifikatsiya qiladi. Malumki ingliz va o'zbek tillarida ham holat kategoriyasini bildiruvchi sintaksemalar sintaktik sathda doimo fe'l va sifat bilan bir maromda ifodalanib keladi. Shu sababli o'zbek tilshinolari o'rtasida munozaralarga sababchi bo'lgan bu holat fe'lning vazifadoshi bo'lgan sifatdosh ko'proq sifatga yaqin turishi etirof etilgan. O'zbek tili grammatikasida holat kategoriyasini bildiruvchi sintaksemalar zamon ma'nolariga qarab harakatlanadi. Masalan: sifatdosh shakli sifatida holat bildiruvchi suffikslardan biri (-gan) zamon ma'nosini ko'rsatuvchi va (-gan) shaklining varianti sifatida qaraluvchi (-yotgan), (-adigan/ydigan) shakliga shu ma'nosi bilan o'tmaydi. Bunday holatda uning ma'nolarini farqlovchi zamon kesimga nisbatan harakatlanadi.

Holat bildiruvchi sintaksemalarning o'zbek tilida harakatlanishi kesim ostida harakatlanadi. Xususan (-gan) ko'rsatkichi bilan ifodalangan sifatdoshning ma'noviy xususiyati asosida keyingi fe'ldan anglashilgan harakatdan ilgari sodir bo'luvchi harakatni atributiv belgisi sifatida ifodalash yotadi. Lekin sifatdosh ifodalagan harakat nutq momentigacha sodir bo'lmagan bo'lishi mumkin, ya'ni kutilayotgan holat hali sodir bo'lmagani ko'rsatilyapti.

Masalan: Jon xotin, men borguncha shu xatni olib borgan bolani o'ldirib yubor (Ertak).

To'rt holat fe'li – yot, tur, o'tir, yur fellariga qo'shilganda ham shakl ushbu ma'no bilan bo'ladi. Bu, albatta, fe'lning lug'aviy manosiga bog'liq holda yuz beradi. Misollardan ko'rinayaptiki fe'llar gapda atributiv vazifada kelsada o'zining fe'llik xususiyatini saqlab qolgan holda sintaktik muvozanatda holatni ifodalayapti. Buni biz konstruktsiyada ham ko'rishimiz mumkin: harakatni bajaruvchi va holatni yuklovchi fe'l bilan ifodalangan holda atributiv funksiyani olsada o'zini ifodalab, egalik va ko'rsatish olmoshlari bilan kelib holatni bildirayapti.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili grammatikasida holatni bildiruvchi sintaksemalar alohida nomlanmagan bo'lsada, biroq gap qurilmasida ularning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, ular so'zlarni biriktirish jarayonida sintaktik sathda elementlari bilan ishtirok etishadi. So'zlarni biriktirish vazifasini bajaruvchi elementlar tilning sintaktik vositalari sanaladi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

- [1]. Jamolxonov X. *Xozirgi o'zbek adabiy tili.* – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
- [2]. Karimova G. *O'zbek tilida grammatikalizatsiya xodisasi.*- Toshkent, 2010.-36b.
- [3]. Usmonov O'. *Talabalarga sintaktik tahlilni o'rgatishga doir ayrim muloxazalar \\ Chet tili o'qitish metodikasining asoslari\ Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Samarkand, 2011-yil. 12-13-aprel, SamDCHTI, Samarkand-2011.-B.35-37.*
- [4]. Usmonov O'.U., Ashurov Sh.S. *Ingliz tili nazariy grammatikasi.* – Samarqand, 2007.-88 b.